

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR  
PAGES

# JOCAA

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

## Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**IBRAGIMOV Abdupatto Ahmadjonovich***Namangan davlat universiteti**“Musiq ta’limi” kafedrası mudiri**dotsent v.b.*<https://doi.org/10.5281/zenodo.7933098>

## О‘QUVCHI-YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA MUSIQA TO‘GARAKLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson va jamiyatning bir-biriga o‘zaro munosabati natijasida shaxsning estetik madaniyati tushunchalari shakllanib, rivojlanib borishi, shuningdek, jamiyatning inson estetik madaniyatini rivojlantirishda moddiy va ma’naviy qadriyatlarlarning tutgan o‘rni atroflicha yoritiladi. Jumladan, bola shaxsining estetik madaniyatini shakllantirishda musiqa to‘garaklarining faoliyati yuksak ekanligi turli metod va vositalar orqali nazariy va amaliy o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** musiqa, qobiliyat, tarbiya, to‘garak, cholg‘u, go‘zallik, madaniyat, taraqqiyot.

**ИБРАГИМОВ Абдупатто Ахмаджанович***Заведующий кафедрой “Музыкальное образование”**Наманганского государственного университета**в.и.о. доцента.*

## О ЗНАЧЕНИИ МУЗЫКАЛЬНЫХ КРУЖКОВ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В НАЦИОНАЛЬНОМ ДУХЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно освещается формирование и развитие понятий эстетической культуры личности в результате взаимодействия человека и общества, а также роль материальных и духовных ценностей в развитии эстетической культуры человека в обществе. В частности, высокая активность музыкальных кружков в формировании эстетической культуры личности ребенка изучается теоретически и практически различными методами, и средствами.

**Ключевые слова:** музыка, способности, воспитание, кружок, инструмент, красота, культура, прогресс.

**IBRAGIMOV Abdupatto Akhmadzhanovich**  
*Head of the Department "Music Education"*  
*Namangan State University,*  
*associate professor*

## **ABOUT THE SIGNIFICANCE OF MUSIC CIRCLES IN EDUCATION OF YOUTH STUDENTS IN THE NATIONAL SPIRIT**

### **ANNOTATION**

This article details the formation and development of the concepts of the aesthetic culture of the individual as a result of the interaction between man and society, as well as the role of material and spiritual values in the development of the aesthetic culture of man in society. In particular, the high activity of musical circles in the formation of the aesthetic culture of the child's personality is studied theoretically and practically by various methods and means.

**Key words:** music, abilities, education, circle, instrument, beauty, culture, progress.

Jamiyat va shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda, insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plagan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui tushuniladi. Bola shaxsining estetik madaniyati uning jamiyat moddiy merosini faol o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladi. Shaxsni go'zallik bilan o'zaro munosabati o'laroq uning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida estetik madaniyati doimo o'zgarib turadi.

Bugungi kunga kelib barcha sohalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyatida, xoh u ishlab chiqarishda bo'lsin yoki ta'lim-tarbiya muassasalarida bo'lsin, hatto xususiy firma yoki boshqa tashkilotlarda bo'lsin targ'ibot va reklama ishi asosiy o'rin tutadi. Kishilarni har bir ishga, tadbirga jalb etishda, jumladan o'quvchi-yoshlarni sinfdan tashqari musiqa to'garaklariga jalb etishda ham reklama, afisha, e'lon, taklif qog'ozlari, albomlar, turli uchrashuvlar, kechalar, tadqiqot ishlari kabi uslublardan keng foydalaniladi. Har bir ish qatnashuvchilarni jalb etishdan boshlanadi.

O'quvchi-yoshlar markazi, o'quvchilar saroylari badiiy jamoasining rahbarlari, yo'riqchilar, badiiy rahbarlar maxsus reja asosida maktab, litsey va boshqa ta'lim dargohlarida bo'lib, o'quvchilarni to'garaklar faoliyati bilan tanishtirib borib, tashviqot ishlarini olib borishlari har jihatdan ishning samarali bo'lishini ta'minlaydi. To'garak rahbarlari va yo'riqchi-tashkilotchilar, tashabbuskor zamon talabiga mos axborotlardan xabardor, o'ziga xos pedagog va psixolog bo'lishi bilan birga tashviqotchi-targ'ibotchi bo'lishi ham talab etiladi.

Birgina Namangan shahrida joylashgan Respublika o'quvchi-yoshlar markazida o'quvchilarni badiiy jamoalarga, to'garaklarga jalb etish uchun yangi targ'ibot ishlari joriy qilingan. Markaz o'z ish rejasi asosan Namangan viloyatidagi maktablar, gimnaziyalar, internatlar va litseylar o'quvchilar o'rtasida har oy "Talantlarni izlaymiz" deb nomlangan musiqali uchrashuv tadbirini o'tkazadi. Bundan viloyatdagi badiiy jamoalar tomonidan konsert dasturlari va qiziqarli chiqishlar namoyish etiladi. Tadbir davomida shu badiiy jamoalar faoliyati haqida, ularning ish jarayonlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Shunday an'anaviy tadbirlardan yana biri "San'at sehri" mavzusida o'tkazilib, unda o'quvchi-yoshlarga mumtoz musiqa asboblari, ularning tarixi, ijrochilik uslublari haqida ma'lumotlar berilib, jamoa qatnashchilari tomonidan mumtoz kuylar ijro etib beriladi. Uchrashuv so'ngida barcha qiziquvchilarni shu jamoalarga taklif qilinadi. Unda o'quvchi-yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib boriladi. Natijada o'zbek xalq an'analari, urf-odat – namunalari haqidagi bilimlari boyitilib, havaskorlik san'ati sirlari bilan tanishtiriladi, ularda zamonaviy bilim va ko'nikmalar takomillashtirilib, badiiy estetik dunyoqarash malakalari shakllantiriladi.

Shuningdek, viloyatda tashkil etilgan ashula va raqs Xalq jamoasi, "Gulruh" folklor-etnografik badiiy jamoasi, "Namangan gullari" estrada guruhi, "Zamonaviy raqs to'garagi", "Doirachilar", "Qiziqchilar", "Sheping" zamonaviy raqs to'garagi, "Yoshlik" studiyasi, "Rassomchilik" to'garagi, sport to'garaklari bilan bir qatorda "Milliy cholg'u sozlari" to'garaklarida 400 dan ortiq o'quvchilar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

“Hilola” va “Gulruh” jamoalari bir qator chet el davlatlarida bo‘lib o‘zbekona folklor-etnografik san‘at boyligini, raqsini, milliy urf-odatlarini va kiyimlarini dunyo miqyosida namoish etib, ijobiy yutuqlarga erishib kelmoqda [14, B.7].

Shuningdek, Namangan viloyatida o‘quvchi-yoshlar orasida ijodiy raqobatlarini shakllantirish maqsadida turli bellashuvlar, festivallar, tanlov va musobaqalar, jumladan, “Iste‘dod”, “Mahorat”, “Hunar” kabi turli yo‘nalishlarda tanlovlar o‘tkazilib turiladi. Faoliyat ko‘rsatayotgan barcha badiiy jamoalar yoshlar hayotini keng qamrab olib, natijada ularni badiiy ijodiyotga yanada ko‘proq jalb etmoqda. O‘quvchilarning badiiy jamoalarga muntazam ishtirok etishi avvalo ularning bo‘sh vaqtlari mazmunli o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shuningdek, ularni turli salbiy fikr va oqimlarga berilib ketishidan saqlaydi. Ular ongida yaxshilik, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantiradi. Kelajakda biror kasb-hunar egasi bo‘lishiga zamin hozirlaydi.

Sinfdan tashqari musiqiy to‘garaklar bu o‘quvchilarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda, ularni kasbga yo‘naltirishda, iqtidorlarini namayon qilish va bilim-ko‘nikmalarini shakllantirishda qulay imkoniyatlarga ega. Jumladan, o‘quvchi-yoshlardagi “Yakkaxon qo‘shiqchilikka bo‘lgan iste‘dodlarini aniqlashda, ularning O‘zbekistondagi to‘rt mahalliy musiqa uslub aytimlarini qay darajada egallaganliklari” [17, B.4], shuningdek, “cholg‘u sozlariga bo‘lgan ilk nazariy va amaliy bilim-ko‘nikmalari” [15, B.5] yoki “vokal-cholg‘u ansambllaridagi ijrochilik va ijodkorlik ko‘nikmalari” [13, B.614] sinovdan o‘tkazildi. Kuzatishlar bizni shunday xulosaga olib keldiki, musiqiy to‘garaklarga qatnashuvchi o‘quvchilar milliy g‘oya tushunchalari bo‘yicha muayyan tushunchalarga ega bo‘lishgan.

Ayni paytda matbuot, radio televideniye va davlat miqyosida o‘tkazilayotgan tadbirlar ham o‘quvchilar o‘rtasida milliy g‘oya tushunchalarini shakllantirishda birmuncha xayrli ishlarni amalga oshirmoqda. Hozirgi kunda televideniye orqali “O‘yla, izla, top!”, “Yangi avlod”, “Bu turfa olam”, “Ming bir rivoyat”, “Yoshlar ovozi”, “Mumtoz navolar”, “Alpomish avlodlari” kabi teleko‘rsatuvlar, O‘zbekiston va Namangan radioeshittirishlari orqali berilayotgan “Milliy g‘oya va mafkura”, “Tarix va yoshlar”, “Radiotest”, “Kelajak tongi”, “O‘quvchi-yosh”, “Alpomish izdoshlari” kabi eshitirishlar tez-tez efirga uzatilib turadi. Yuqoridagi ko‘rsatuv va eshitirishlarning yoshlarda milliy g‘oya tushunchalarini shakllantirishdagi o‘rnini e‘tirof etgan holda ularning ko‘pchiligi ko‘ngil ochar mavzularga qaratilganligini, ularning ta‘limiy-tarbiyaviy mavzularga yo‘naltirilganlari sanoqli ekanligini e‘tirof etish joiz. Shu boisdan o‘quvchi yoshlarda milliy g‘oya tushunchalarini shakllantirishning o‘ziga xos tizimini, badiiy etnopedagogik qirralarini aniqlashni zaruriyatga aylantirib qo‘yadi va o‘quvchi yoshlarni milliy g‘oya tushunchalari ruhida tarbiyalash tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Umuminsoniylik – turli millat vakillariga va o‘zgacha fikrlovchilarga hurmat va hayrixohlik, turli dinlar va boshqa madaniyatlarning o‘ziga xosligini tan olish, turli xalqlar va ijtimoiy guruhlar qadriyatlarini qadrlash demakdir. Ushbu g‘oyani shakllantirishda boshqa xalqlarning an‘ana va urf-odatlari, madaniyati, milliy-musiqiy meroslarini o‘rganish, baynalminal do‘stlik tushunchalarini shakllantirish kabi tarbiyaviy ishlarning turli shakl va usullaridan keng foydalanish mumkin.

Jumladan Respublikamizda o‘tkazilayotgan “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiqlar bayrami turli xalqlar hamjihatligini ta‘minlash maqsadiga yo‘naltirilgan. Ushbu ko‘rik-tanlov bunyodkor, bag‘ri keng, mehdaryo xalqimizni madh etuvchi, turli qatlam va millatlar qalbida muqaddas Vatan tuprog‘ini, mustaqillikni ko‘z qorachig‘iday asrab avaylashga undovchi yangi qo‘shiqlar yaratish maqsadida o‘tkaziladi. Ko‘rik-tanlov muassasa va alohida ijrochilarning tavsiya-buyurtmalari bo‘yicha umumta‘lim maktablari, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlari talabalari, o‘qituvchi-tarbiyachilar va “Mehribonlik” uylari, maktab-internatlari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida har yilning 10-martidan 1-mayigacha ikki bosqichda o‘tkaziladi.

Bu ko‘rik-tanlov maqom ijrosi, xor ijrosi, akademik ijro, folklor ijrosi, vokal cholg‘u ijro janrlari bo‘yicha turli tillardagi yuqori badiiy saviyada yaratilgan san‘at asarlarini saralab olish va ulardan yoshlar tarbiyasida foydalanish kabi ma‘naviyat va ma‘rifat ishlariga yo‘naltirilgan.

Qardosh va chet el xalqlari madaniy merosiga oid “Zabul tesnisi” Ozarbayjon xalq qo‘shig‘i; “Quvnoq qizlar qo‘shig‘i” Qirg‘iz xalq qo‘shig‘i; “Atush” Uyg‘ur xalq qo‘shig‘i; L.V.Betxovenning “Qahramonlik” (3-simfoniyasi); Shopenning “Mazurka”; Shubertning “Forel”, D.Omonullayeva musiqasi, T.Mallaboyev she‘ri bilan “Turkiston farzandlarimiz”; T.Azimov musiqasi, P.Mo‘min she‘ri bilan “Taraldi shodiyona”; I.Hamroyev musiqasi, Yo.Mirzo she‘ri bilan “Paxtazorga parvonalar”; M.Glinkaning “Polka”, P.Chaykovskiyning “Neapolcha raqs” asari, R.Gubaydullin qayta ishlagan “Oromijon” (O‘zbek xalq kuyi asosida) kabi musiqiy asarlar o‘zining turli tuman g‘oyaviy mazmuni, fikr, qarashlar va maqsadlari bilan hamjihatlik, tinchlik va totuvlik g‘oyalarini ilgari suradi [11, B.19].

S.Yudakov musiqasi A.Muxtor she‘ri bilan “Jon O‘zbekiston” asari bir nechta cholg‘u sozlar uchun qayta ishlangan bo‘lib, yakka tartib mashg‘ulotlarida (rubob, dutor, doyra, fortepiano) asar matnididan unumli foydalanish imkoniyati mavjud.

Mustaqil O‘zbekiston o‘z siyosatining fuqarolar tinchligi va milliy totuvlik asosida qurilganini o‘z vaqtida e‘lon qilgan edi. Bunga erishmoq uchun tarbiyaviy ishlarda har bir millat va elatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini qonuniy ravishda ularning o‘zligini anglash darajasini o‘shishiga olib kelishini nazarda tutish lozim.

O‘zining milliy madaniyatiga beqiyos hurmatda bo‘lish barobarida o‘quvchilarga boshqa elat an‘analariga nisbatan kalondimog‘lik va bepisand nazar bilan qarash noto‘g‘ri ekanligini muntazam tushuntirib borish lozim. Hech qanday milliy an‘analar kimningdir oriyatiga tegmasligi va dushmanlik munosabatlarini uyg‘otmasligi kerak. U samimiy va beg‘araz bo‘lmog‘i lozim.

Yoshlarni Vatanparvarlik va baynalmillatlik ruhida tarbiyalashda zamonaviy nuqtai nazardan yondashib, unga jamiyat yangilanishining mohiyati bo‘lgan demokratiya, insonparvarlik, mavjud va yangi tug‘ilayotgan milliy-madaniy an‘analar, umuminsoniy qadriyatlar va o‘z navbatida yangicha tarbiyaning o‘ziga xos uslub va shakllarini joriy etishni taqozo etadi.

Xonandalik to‘garaklarida quyidagi musiqiy asarlardan foydalanish tavsiya etiladi:

A) Millatlarning o‘zaro teng huquqliligi haqida:

1. Qambar Ota she‘ri bilan L.Mujdaboyeva musiqasi “O‘zbekistonim” qo‘shig‘i.
2. P.Mo‘min she‘ri bilan N.Norxo‘jayev musiqasi “Keng Turkiston” qo‘shig‘i.

B) Millatlararo hamkorlik haqida:

1. P.Mo‘min she‘ri bilan F.Alimov musiqasi “Ahillik – do‘stlik” qo‘shig‘i.
2. A.Muxtor she‘ri bilan S.Yudakov musiqasi “Jon O‘zbekiston” qo‘shig‘i.

B) Boshqa millatlarga hurmat bilan qarash haqida:

1. M.Qoriyev she‘ri bilan D.Zokirov musiqasi “Do‘stlik” qo‘shig‘i.
2. Q.Mahammadiy she‘ri bilan K.Kenjayev musiqasi, Shermat Yormatov qayta ishlagan “Yoshlik yo‘llari chaman” qo‘shig‘i.

G) Turli xalqlar va millatlar madaniyatlariga ochiqlik haqida:

1. “Vaqt o‘tganda”. Hind xalq qo‘shig‘i.
2. “Tongi shafaq”. Arab xalq qo‘shig‘i.
3. “Oltin baliqchalar”. Yapon xalq qo‘shig‘i.
4. “Nayrez”. Tojik xalq qo‘shig‘i.
5. X.Jo‘rayev she‘ri bilan N.Qurbonasayev musiqasi “Ey Tojikistonim” ashulasi.

Tajribadan shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ushbu musiqiy asarlardagi badiiy vositalar mazmuni, mohiyati, undagi obrazlarning tafsilotlari o‘quvchilarda boshqa millat san‘ati va madaniyatiga, an‘ana va urf-odatlariga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otibgina qolmay, bu millatlar madaniyatiga nisbatan hurmat va ehtirom tushunchalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar ko‘pchilik to‘garak rahbarlarini maktab o‘quv jarayoni bilan, tarbiyaviy ishlar mazmuni bilan uzviy aloqada emasligi dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida tarbiya tizimida uzviylik va integratsiya masalalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

1. To‘garak rahbarlarining maxsus kasbiy tayyorgarligiga ega bo‘lmaganligi tufayli kelib chiqadigan kamchiliklar. Tahlillardan ayon bo‘lgan xulosa shuki, ta‘kidlovchi tajriba – sinovga jalb etilgan 48 nafar to‘garak rahbarlaridan 31 nafari yurtlarini musiqiy yo‘nalishi bo‘yicha tomomlagan. Faqatgina 17 nafari, oliy ma‘lumotga, maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega.

Shu sababli ular sinfdan tashqari musiqa to'garaklarining ta'lim-tarbiya ishlarini yo'lga qo'yishda tarbiyaning samarali metodi, vosita va usullarini qo'llashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

2. To'garak rahbarlarining o'z ustida muntazam ish olib bormasligi tufayli kelib chiqadigan kamchiliklar. Tahlillar, shuni ko'rsatadiki, ko'pgina to'garak rahbarlari o'z ustida muntazam ishlamasligi malakasini oshirib borishga yetarli e'tibor bermasligi tufayli milliy g'oya tushunchalari mavzusidagi ta'lim-tarbiya ishlaridan unumli foydalana olmaydilar [16, B.16].

Tadqiqotimizning mantiqi sinfdan tashqari musiqiy to'garaklar faoliyatida o'quvchilarda kasbga yo'naltirishning hozirgi holatini kuzatib, bu muammoni yechishda dastur va qo'llanmalar qanday imkoniyatlarga ega ekanligini aniqlash, o'quvchi-yoshlarni milliy g'oya tushunchalarini bilish darajasini aniqlash, bu borada mavjud tajribalarni umumlashtirish, bu murakkab ishni tashkil etishda kuzatilayotgan qiyinchiliklar ko'lamini aniqlashni talab etadi.

Hozirda O'zbekiston yoshlar o'rtasida axloq, odob tarbiyasini amalga oshirishga, milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishga katta e'tibor bermoqda. Zamondosh olimlarimizdan S.Allamuratova o'zining doktorlik dissertatsiyasida yuqori sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari mashg'ulotlarida badiiy-estetik tarbiyalash masalalariga to'xtalib o'tgan. Olima dissertatsiyasida darsdan tashqari o'tiladigan musiqa to'garaklarning yuqori sinf o'quvchilariga badiiy-estetik tarbiya berishdagi ahamiyatini sanab o'tgan [1, B.15].

Sinfdan tashqari ishlarda yuqori sinf o'quvchilarini badiiy-estetik tarbiyalashning tizimi, shart – sharoitlari, shakl va metodlari, psixologik-pedagogika asoslari va mazmunini ishlab chiqilgan bo'lib, uni bugungi kunda ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida qo'llamoqdalar. Keyingi vaqtlarda pedagog olimlarimiz xalqimizning milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganishga katta e'tibor bilan qaramoqdalar.

Zero, o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy tomondan yetuk shaxs etib tarbiyalash hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra bu masala ilmiy tadqiqot ishlarida o'z yechimini topmoqda. Mana shunday ishlardan biri O.Musurmonovanning yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslariga bag'ishlangan tadqiqotidir.

O.Musurmonova o'quvchilarning ma'naviy jihatdan shakllanishida qadriyatlarning tutgan o'rni, uning pedagogik asoslarini tadqiq etib, ularga pedagogik tasnif berib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni tahlil qilgan va ularni o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishida muhim vosita ekanligi asoslab berilgan tasniflariga tayangan holda, tadqiqotimizda ko'zda tutilgan badiiy vositalarning o'quvchi-yoshlar ma'naviy tarbiyasiga ta'siri jihatlarini ishlab chiqiladi. Qadriyatlardan musiqiy to'garaklar faoliyatida foydalanish, o'quvchi-yoshlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishning asosiy omillaridan biri ekanligi aniqlandi. M.Quronovning "O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari"ga bag'ishlangan tadqiqoti ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Unda o'zbek tarbiyachilik madaniyatining boy uslubiy manbalariga tayangan holda, milliy tarbiya mazmuni va uslublarini tiklash, o'quvchi-yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishining yo'nalishlari nazariy va amaliy jihatidan asoslab berilgan milliy tarbiya muammosi bo'yicha xorijiy pedagogikaning yetakchi oqimlari namunalarining tahlil qilinishi, maktabning oila, mahalla va sinfdan tashqari musiqa bilan milliy tarbiya borasidagi hamkorligining samarali yo'llari hamda bo'lajak o'qituvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiya jarayoniga rahbarlikka tayyorlash samaradorligini oshirishning shart-sharoitlari mavzuyimiz uchun muhim nazariy va uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Professor S.Nishonovanning tadqiqot ishi Sharq o'yg'onishi davri pedagogik taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasiga, Sharq o'yg'onishi davri mutafakkirlari-qomusiy omillarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridagi inson kamoloti muammosining hal qilishga qaratilgan bo'lib, bunday manbalardan musiqiy to'garaklar tarbiyaviy ishlarida foydalanish ma'naviy tarbiyani ta'sir kuchini yanada oshiradi. Maktabdan tashqari bolalar tarbiya muassasalari, umumiy ijtimoiy pedagogik tizimida muhim o'rinni egallaydi hamda oila va maktabning eng yaqin yordamchisi sifatida namoyon bo'ladi [8, B.288].

Musiqiy tarbiya vosita sifatida nazariy va badiiy vositalardan foydalanish, to‘garak rahbarlari faoliyatidan mustaxkam o‘rin egallash ishlarini tashkil etishni taqazo etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lgan holda o‘quvchi yoshlarni o‘zbek xalqi ulug‘ xalq ekanligi, ajdodlarimizda milliy ruh, milliy ong, milliy g‘urur, ustun bo‘lganligini ko‘hna dunyoning eng qadim eng e’tiborli millati sifatida asrlar osha mustaqil davlat barpo qilishganiga oid bilimlarni puxta egallashlari zarur.

Bunda musiqa madaniyati darslarini yanada sermazmun yangi uslub va vositalar orqali o‘tilishi, musiqiy to‘garak rahbarlarini bilim saviyalari yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, sinfdan tashqari ta’lim muassasalari musiqa to‘garaklari rahbarlari bilan o‘quvchilarda badiiy vositalar orqali kasbga yo‘llash, o‘quvchilarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishning shakl, uslub va vositalarini nazariy tahlil qilish va amaliyotga tadbiq etish taklif etiladi.

## ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Алламуратова С.К. Художественное эстетическое воспитания школьников Узбекистана. – Т.: Fan, 1991.
2. Давидова М.А., Агапова И.А. Музыкальные вечера в школе. – М., 2001.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Т.: O‘qituvchi nash. 2004.
4. Ibrohimov O., Ibrohimov J. Musiqa. 4-sinf darsligi. – Т.: G‘afur G‘ulom nash. 2003.
5. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Т.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2004.
6. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. – Т.: FTDK, DITAF 2000.
7. Mavlyanova-To‘rayeva O., Xolikberdiyev K. Pedagogika. – Т.: O‘qituvchi. 2001.
8. Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. – Т., 1998.
9. Norboyeva F.R. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi 7-9 sinf o‘quvchilarida milliy ongni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Т., 2009.
10. Nurmatov X., Norxo‘jayev N. Musiqa. 2-sinf darsligi. – Т.: G‘afur G‘ulom. 2003.
11. Norxo‘jayev N., Nurmatov X. Musiqa. 3-sinf darsligi. – Т.: G‘afur G‘ulom. 2003.
12. Tolipov Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – Т.: Fan. 2006.
13. Худоев Г.М. Развитие творческого воображения участников детского вокально-инструментального ансамбля. Импактфактор журнал. – Т.: Science and Education. 2023/1. ([https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=2vt6\\_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation\\_for\\_view=2vt6\\_Y4AAAAJ:RYcK\\_YIVTxYC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:RYcK_YIVTxYC)) 611-616.
14. Qo‘shiqlar xrestomatiyasi. 1-2-kitob. Tuzuvchi: M.Jalilov. – Т., 2002-2003.
15. Xudoyev G‘. Boshlang‘ich g‘ijjak saboqlari (1-kitob). – Т.: G‘.G‘ulom nash., 2016. ([https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=2vt6\\_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation\\_for\\_view=2vt6\\_Y4AAAAJ:YOwf2qJgpHMC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:YOwf2qJgpHMC)).
16. Кушаев А.Э. Узбекская профессиональная музыка эстетического развития учащиеся 4-7 классов. Автореферат диссертации канд. пед. наук. – М., 1987.
17. Xudoyev G‘. Yakkaxon qo‘shiqchilik (Buxorcha aytimlar asosida). – Т.: Fan. 2022. ([https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=2vt6\\_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation\\_for\\_view=2vt6\\_Y4AAAAJ:JV2RwH3\\_ST0C](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:JV2RwH3_ST0C)).
18. Xudoyev G‘.M., Rahimov Sh.N. Musiqa to‘garaklarini tashkil etish. “To‘garaklar – yoshlar intellektual salohiyatini oshirish omillari” respublika anjuman materiallari. – Т., 2010. ([https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=2vt6\\_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation\\_for\\_view=2vt6\\_Y4AAAAJ:4DMP91E08xMC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:4DMP91E08xMC)) 91-92.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)